

O'ZBEKISTONDA TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

I.Sharofutdinov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Turizm” kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14885852>

Annotatsiya. Ushbu tezisda O'zbekistonda turizmga transport xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari o'rganiladi. Mamlakatning turizm salohiyati va transport tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, turizm sohasining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun transport infratuzilmasining ahamiyati tahlil qilinadi. Tezisda, transport xizmatlarini yaxshilash uchun davlat tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar asosida amalga oshirilishi zarur bo'lgan islohotlar ko'rib chiqildi. Turizmning samarali rivojlanishi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: transport tizimi, transport xizmatlari, ecoturizm, madaniy meros, turizm infratuzilmasi.

Kirish

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining rivojlanishi, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi va global raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekistonning boy tarixiy va madaniy merosi, tabiat go'zalliklari va boy an'analari mamlakatni turizm uchun jozibador qilishda katta rol o'ynaydi. Biroq, bu sohaning samarali rivojlanishi uchun turizmga xizmat qiladigan transport tizimini yanada modernizatsiya qilish zarur.

Turizmning muvaffaqiyatli rivojlanishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning eng muhimlaridan biri – samarali va qulay transport tizimi. Turistlarning sayohatlarini osonlashtirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, yangi yo'nalishlar yaratish va transport infratuzilmasini zamonaviylashtirish – bu O'zbekistonda turizmning uzoq muddatli va barqaror o'sishiga yordam beradigan asosiy strategiyalar hisoblanadi. Shu maqsadda O'zbekiston hukumati turizmni rivojlantirish bo'yicha bir qator muhim qarorlar va farmonlarni qabul qilgan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 29-dekabrda qabul qilingan **"O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning 2021-2025 yillarga mo'ljallangan kompleks dasturi"** PF-6096-sonli **qarorida** mamlakatda turizm sohasini yangi bosqichga olib chiqish uchun zarur bo'lgan strategiyalarni belgilab berdi. Ushbu farmon asosida turizm sohasini rivojlantirish uchun transport, infratuzilma va xizmatlar sohasida keng ko'lamli islohotlar rejalashtirilgan. Farmonda, shuningdek, sayyohlarni jalb qilish maqsadida transport tizimi samaradorligini oshirish, qulay va raqobatbardosh narxlardagi aviaqatnovlar va turistik yo'nalishlarni joriy etish, ekologik toza transport vositalarini qo'llash kabi masalalar ko'tarilgan. Bunday tashabbuslar O'zbekistonni sayyohlar uchun yanada jozibador qiladi.

Materiallarni olish texnologiyasi va tadqiqot usuli

Turizm va transportning o'zaro bog'liqligi: Turizm sohasining rivojlanishi va sayohatchilar sonining oshishi transport tizimining sifatiga bevosita bog'liq. Turizmni rivojlantirishda transportning o'rni nihoyatda katta, chunki turistlar mamlakatning turistik joylariga qulay va tez yetib borishlari kerak. Bu borada avtomobil, temiryo'l va aviatsiya transporti muhim rol o'ynaydi. Transport tizimi samarali bo'lsa, turistlar O'zbekistonga ko'proq tashrif buyurishadi, bu esa o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga va turizm sohasining global raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

O'zbekistonning turizm salohiyati yuqori darajada bo'lib, mamlakat boy tarixiy va madaniy merosga ega. Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent kabi shaharlar dunyo bo'ylab mashhur bo'lib, ular nafaqat o'zining tarixiy va madaniy yodgorliklari, balki o'ziga xos mehmondo'stlik an'analari bilan ham sayyohlarni jalb qiladi. Bularning barchasi O'zbekistonga tashrif buyuradigan turistlar uchun katta jozibadorlik yaratadi. Shu bilan birga, turistlar mamlakatning turistik joylariga oson va qulay yetib borishi uchun zamonaviy transport tizimi kerak. O'zbekistonning transport infratuzilmasi sayyohlar uchun qulay, tezkor va xavfsiz bo'lishi, sayohatlar uchun zaruriy qulayliklarni taqdim etishi kerak. Turizm sohasining iqtisodiy o'sishiga olib keladigan eng muhim omillardan biri aynan transport tizimining samaradorligidir, chunki sayyohlarning mamlakat bo'ylab harakatlanishi transport tizimiga bog'liq bo'ladi.

Transport tizimi turizmning rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Sayyohlarning sayohatni oson va qulay qilish uchun, transport tizimi zamonaviy va samarali bo'lishi kerak. Turistlar uchun sayyohlik

joylariga oson va tezkor erishish imkoniyatini yaratish, transport xizmatlarining muhim jihatlaridan biridir. Ularning davomiyligi, xohishlari va turistik yo'nalishlarga bo'lgan talabga mos keladigan transport turlari, sayyohlarni mamlakatga jalb qilishda muhim omil hisoblanadi. Qulay transport tizimi turizmni rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi, chunki sayyohlarning mamlakatda yashash vaqtini uzaytirish va sayohatni qulayroq qilish orqali iqtisodiy foyda olish mumkin bo'ladi. Shuningdek, transportning ekologik tozaligi va texnologik innovatsiyalarni joriy etish ham sayyohlar uchun qulaylik yaratadi va O'zbekistonni ekologik turizm markazi sifatida dunyoga tanitadi.

Eksperimental natijalar va ularning muhokamasi

1. Transport xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

1. Transport infratuzilmasini yangilash va kengaytirish: Transport tarmog'ini yangilash va kengaytirish, turizmni rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Yangi yo'llar qurish, mavjud yo'llarni ta'mirlash va zamonaviylashtirish, aeroport va temiryo'l vokzallarini modernizatsiya qilish, avtobus va taksi xizmatlarini yaxshilash - bularning barchasi turistlar uchun qulaylik yaratish va sayohatlarni osonlashtirishga yordam beradi. O'zbekistonning turistik markazlariga olib boruvchi yo'llarni yaxshilash, transportning xavfsizligi va qulayligini ta'minlash uchun zarurdir.

2. Yangi aviaqatnovlarni ochish va raqobatbardosh narx siyosati: Transport tizimining rivojlanishi uchun yangi xalqaro va ichki aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish zarur. Yangi aviaqatnovlarni ochish sayyohlarni O'zbekistonga jalb qilishda muhim omil bo'ladi. Shuningdek, aviaqatnovlar narxlarini raqobatbardosh qilish va sayyohlar uchun arzon narxlarni taklif etish turizmni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Ekoturizm va maxsus transport turlari: Ekoturizmning rivojlanishi bilan birga ekologik toza transport vositalarini qo'llash va maxsus turistik avtobuslar xizmatlarini joriy etish muhimdir. Boshqa turistik hududlarda sayohat qilish uchun maxsus transport turlarini yaratish, masalan, velosiped turlari, piyoda sayohatlar uchun transport vositalarini qo'llash sayyohlarni jalb qilishga yordam beradi.

4. Raqamli texnologiyalar va intellektual transport tizimlari: Raqamli texnologiyalar transport sohasiga integratsiya qilinishi kerak. Sayohatchilar uchun mobil ilovalar va onlayn tizimlar orqali transport jadvali, yo'nalishlar va narxlar haqida real vaqt ma'lumotlarini olish imkoniyati taqdim etilishi zarur. Intellektual transport tizimlari orqali transport xavfsizligini ta'minlash va sayyohlar uchun qulaylik yaratish muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda turizm va transport xizmatlarini rivojlantirishda quyidagi ayrim muammolar mavjud:

1. Transport tizimining eskirganligi: O'zbekistonda transport infratuzilmasining bir qismi eskirib ketgan, bu esa turizmni rivojlantirishda jiddiy to'siqlar yaratadi. Eski yo'llar, eskirgan transport vositalari va nisbatan past xavfsizlik darajasi turistlarga qulaylik yaratishda muammolar keltirib chiqaradi.

2. Iqlim sharoitlariga mos kelmagan transport vositalari: O'zbekistonning ba'zi hududlarida iqlim va geografik sharoitlarga mos kelmagan transport vositalari ishlatilmoqda. Bu sayohatchilar uchun qo'shimcha muammolarni keltirib chiqaradi va transport tizimining samaradorligini pasaytiradi.

3. Aksessuarlar va xizmat ko'rsatish sifati: Transport tizimidagi xizmatlar sifatining pastligi, masalan, noqulay avtobuslar, to'liq bo'lmagan jadvallar, nisbatan past xizmat ko'rsatish darajasi turistlar uchun qiyinchiliklarga olib keladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish uchun transport tizimining modernizatsiyasi zarur. Bu borada ko'plab islohotlar va tashabbuslar amalga oshirilishi kerak. Transport tarmog'ini yangilash, yangi aviaqatnovlarni ochish, maxsus transport vositalarini yaratish va raqamli texnologiyalarni joriy etish O'zbekistondagi turizmni yanada rivojlantiradi. Yangi kadrlarni tayyorlash, xususiyl sektor bilan hamkorlik qilish va davlat-privat hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish orqali transport sohasida muvaffaqiyatga erishish mumkin. O'zbekistonning turizm sohasidagi raqobatbardoshligini oshirish va sayyohlarni jalb qilish uchun transport tizimining sifatini yaxshilash zarur..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. PF-6096-son "O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning 2021-2025 yillarga mo'ljallangan kompleks dasturi" farmon, 2020-yil, 29-dekabr.
2. Nazarov, N. G. "STATE SUPPORT MEASURES FOR SMALL BUSINESS IN UZBEKISTAN." The American Journal of Management and Economics Innovations 6.06 (2024): 30-36.
3. Назар Н. THE ROLE OF FREE ECONOMIC ZONES IN DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS IN UZBEKISTAN //ЖУРНАЛ ИННОВАЦИИ В ЭКОНОМИКЕ. – 2021. – Т. 4. – №. 6.
4. Shomurodova, Shakhnoza Gayratovna, and Nazar G. Nazarov. "NATURAL GEOGRAPHICAL LOCATION AND TOURISTIC POTENTIAL OF PISKENT DISTRICT." Journal of Geography and Natural Resources 4.01 (2024): 17-22.
5. NAZAROV N. Analysis of business entities with the development of innovative and investment activities of entrepreneurship in free economic zones //THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука. – 2021. – №. 10. – С. 719-727.